

APOKALIPTIK G'OYALARNING JAMIYAT IJTIMOY HAYOTIGA TA'SIRI

Anvarova Muslimaxon G'iyosiddin qizi

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Qiyosiy dinshunoslik mutaxassisligi magistranti

E-mail: anvarovam21@gmail.com

ANNOTATSIYA

Insoniyat tarixida apokaliptik g'oyalar – ya'ni oxirzamon, qiyomat va dunyoning yakuni haqidagi tasavvurlar doimo muhim diniy-falsafiy fenomen sifatida mavjud bo'lib kelgan. Ular nafaqat diniy e'tiqodlar tizimida, balki jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotida ham chuqur iz qoldirgan. Ayniqsa, yangi diniy harakatlar shakllanishida apokaliptik tafakkur asosiy mafkuraviy o'rin tutib, tarafdorlarni jamoaviy e'tiqod, radikallashuv va ko'pincha zo'ravonlikka undagan. Shu bois apokaliptik g'oyalar zamonaviy sotsiologiya, dinshunoslik va siyosatshunoslik uchun nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tadqiqot obyekti sifatida qaralmoqda.

Maqolada apokaliptik g'oyalarning jamiyat ijtimoiy hayotiga ko'rsatadigan ta'siri, yangi diniy harakatlar shakllanishida esxatologik va millennialistik qarashlarning o'rni kabi masalalar tahlil etilgan. Tadqiqotda apokaliptik harakatlarning jamiyat a'zolari va o'z tarafdorlariga nisbatan amalga oshirgan zo'ravonliklari ijtimoiy beqarorlik manbai sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, apokaliptik sektalarning jamiyatdan ajralib yashashga intilishi, siyosiy manipulyatsiya vositasiga aylanishi hamda diniy ekstremizmga asos bo'lib xizmat qilishi ularning eng xavfli jihatlari sifatida yoritiladi.

Maqolada XX asr oxiri va XXI asr boshida faoliyat yuritgan "People's Temple", "Children of God", "Heaven's Gate", "Aum Sinrikyo" kabi sektalarning ommaviy o'z joniga qasd qilish hodisalari hamda terrorchilik harakatlari keng

tahlil qilinib, apokaliptik g'oyalar diniy-falsafiy fenomen sifatida emas, balki ijtimoiy barqarorlik va global xavfsizlik uchun jiddiy tahdid sifatida baholangan.

Kalit so'zlar: *Apokalipsis, yangi diniy harakatlar, oxirzamon, esxatologiya, radikalizm, zo'ravonlik, izolyatsiya, siyosiy manipulyatsiya, diniy ekstremizm, sekta.*

Yangi diniy harakatlar paydo bo'lgan dastlabki davrlardan boshlab doimo an'anaviy diniy e'tiqodlardan farq qilishni istagan. Bu istak ularning e'tiqodiy tizimlaridagi o'ziga xoslik hamda ibodat va marosimlardagi farqlar orqali namoyon bo'lgan. Xarizmatik rahbarlarning g'oyalari atrofida to'plangan tarafdorlardan iborat katta-kichik jamolar, o'zlarining boshqalardan farqli ekanligiga ishonitirilgan. Vessinjerning ta'biri bilan aytganda "buzg'unchi mingyillik" harakatlari qiyomat haqidagi g'oyalari bilan gavdalanib, shunga mos ravishda e'tiqodiy tizimlarini shakllantirishgan. Ular qiyomatning yaqin kelajakda ro'y berishi natijasida dunyoning yo'q bo'lib ketishini da'vo qilib, shunga mos harakat strategiyalarini ishlab chiqqan. Asosi Bibliya adabiyotidan olingan Armageddon jangi bilan boshlanadigan qiyomatga g'oyaviy va jismoniy jihatdan tayyorgarlik ko'rishgan. Ba'zi guruhlar qurol-yarog' to'plagan bo'lsa, boshqalari to'g'ridan-to'g'ri o'limni tanlab, turli buzg'uchilik harakatlariga qo'l urgan. Yuqorida zikr etilgan harakatlarning aksariyati zo'ravonlikka moyilligi bilan shuhrat qozongan. Qiyomatga bo'lgan ishonch natijasida zo'ravonlikning barcha shakllari amalga oshirilgan, xoh u o'zaro a'zolar o'rtasida bo'lsin, xoh tashqi jamiyatga qaratilgan bo'lsin.

Ammo YDHni dunyoga tanitgan eng muhim harakat ularga ergashmagan va "boshqalar" sifatida tasniflangan oddiy jamiyat a'zolariga nisbatan amalga oshirilgan zo'ravonliklardir. Turkiyalik dinshunos olim Emina Battal YDH tomonidan tashqi olamga yo'naltirilgan ushbu zo'ravonlik harakatlarini ikki guruhga bo'lib o'rganadi: birinchisi, birorta yangi diniy harakatga qo'shilmagan odamlarga nisbatan qo'llanilgan buzg'unchilik bo'lsa, ikkinchisi, bir muddat biror harakat a'zosi bo'lib, keyinchalik undan chiqib ketganlarga qarshi qo'llanilgan

zo'ravonliklardir¹.

Ushbu harakatlar tomonidan ularga a'zo bo'lmaganlarga qarshi zo'ravonlik qo'llashi axloqiy jihatdan buzilgan, yomonlashib borayotgan va irsiy qadriyatlardan voz kechgan jamiyatlarga o'ziga xos tarzda xabar berishga urinish sifatida baholangan. Bunday vaziyatda hech qanday ajratishlarsiz barcha dushman deb e'lon qilingan va ularning o'lishi zarurligi ta'kidlangan. Zo'ravonlikni asosiy vosita sifatida qo'llagan harakatlarning qo'lga qurol olishi ham aynan shu maqsadda amalga oshirilgan.

Apokaliptik g'oyalar jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Bu g'oyalar odamlarning dunyoqarashi, hayotiy qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynagan. "Oxirzamon" tushunchasi bilan bog'liq g'oyalar insoniyat tarixida chuqur iz qoldirgan diniy, falsafiy va madaniy hodisalardan biridir. Bu g'oyalar dunyoning oxiri, qiyomat, ilohiy adolat va yangi dunyoning kelishi kabi mavzularni qamrab oladi. Apokaliptik tushunchalar nafaqat diniy va falsafiy jihatdan, balki jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotiga ham katta ta'sir ko'rsatgan.

Butun dunyo bo'ylab yangi diniy harakatlarning paydo bo'lishi zamonaviy jamiyat va insonlarning ruhiy dunyosiga muhim ta'sir ko'rsatmoqda. Yuqorida nomlari tilga olingan sektalar, xristian mamlakatlarida bo'lgani kabi, hinduiylik, buddaviylik va islom hukmron bo'lgan mamlakatlarda ham paydo bo'lmoqda. Ayniqsa, Janubi-Sharqiy Osiyo, Janubiy Amerika va Afrika kabi mintaqalarda yangi diniy oqimlarning ko'p miqdorda paydo bo'lishi kuzatilmoqda. Ko'plab mamlakatlarda hayratlanarli darajada ko'tarilgan bu harakatlar haqida 1970-yillargacha yetarli ma'lumotga ega bo'lish imkoniyati mavjud bo'lmagan. Chunki o'sha vaqtgacha dinlar tarixi, sotsiologiya va ilohiyotshunoslik bu harakatlarga nisbatan befarq bo'lib kelgan². Bunga sabab esa dinshunoslik va dinlar tarixi fanlarining tadqiqot ob'yekti sifatida asosan an'anaviy jahon dinlari, mahalliy, qabila va qadimgi dinlarning e'tiqodlari, ibodatlari, marosimlari, ta'limotlari va

¹ Emine Battal. Kıyametin Gölgesinde: Yeni Dini Hareketler ve Şid det. İstanbul: Okur Akademi, 2019. – S. 176.

² Rafet Özkan. *Kıyamet* tarikatları - yeni dini hareketler. İstanbul: IQ Kültür Sanat Yayıncılık, 2023. – S. 30.

<https://scientific-jl.com/>

madaniyatlari o'rganilgan.

Yangi diniy harakatlar dastlab paydo bo'lgan davrda e'tibor qaratilmaganligining bir qancha sabablari mavjud. Masalan, xristian ilohiyotshunosligi o'z ichida paydo bo'lgan diniy harakatlarni noto'g'ri deb hisoblab rad etgan. Muayyan vaqt davomida bu ilohiyot xristianlikni dinlar tarixining oxiri va tugallanishi deb hisoblagan. Shu sababli, xristian ilohiyotshunosligi yangi dinlarni e'tiborsiz qoldirishga harakat qilgan. Bryan Vilsonning fikricha, yangi dinlar sekta sifatida boshlanishi mumkin. Xristianlik ham cherkov tuzilishi shakllanmaguncha yo'nalish sifatida bo'lgan. Biroq, cherkov tashkil topgach, barcha yangi yo'nalishlarni inkor qilgan. Qattiq institutsional tuzilishi va diniy masalalarda monopolistik da'volari tufayli rasmiy xristianlik yangi yo'nalishlar masalasida dunyoning boshqa dinlariga qaraganda sezgirroq va shafqatsizroq bo'lgan. Harakat tarafdorlari nafaqat bid'atchi sifatida baholangan, balki isyonchi sifatida ham qaralgan. Cherkovning ularni inkor qilishi yoki chetlatishi odatda siyosiy bosimlarni oqlash uchun ishlatilgan³.

O'tgan asrda xristian mamlakatlaridan tashqari Shimoliy Afrika, Bolqon yarim oroli, Kichik Osiyo va Misr kabi hududlarni o'z ichiga olgan O'rta yer dengizi mintaqasidagi musulmon davlatlarida ham katta-kichik yangi diniy harakatlar paydo bo'lgan. Yuqorida aytib o'tilganidek, butun Osiyo dinlarida ham o'zgarishlar yuz berib, yangi sektalar paydo bo'ldi. Hatto Janubiy va Sharqiy Osiyo ko'plab yangi harakatlarning markaziga aylandi. So'nggi paytlarda ayniqsa Vyetnam, Koreya va Yaponiya kabi mamlakatlarda yangi diniy harakatlar paydo bo'la boshladi. Indoneziyada "Kargo kulti" nomi ostida yangi harakat paydo bo'ldi. Braziliyada "Umbanda kulti va Kimbanda kulti" nomli yangi harakat vujudga keldi. Shimoliy Amerikada esa ko'plab yangi harakatlar qatorida mahalliy hindular tomonidan tashkil etilgan "Native church of America" (Amerika hindular cherkovi) nomi ostida "Pyote kulti"dan ajralib chiqqan harakat paydo bo'ldi. Bundan tashqari, Amerikaga qul sifatida olib kelingan aholi tomonidan tashkil etilgan yangi harakatlarni ham bular qatoriga qo'shish mumkin. Masalan, "Black

³ Bryan Wilson. *Dini Mezhepler*. Cevirenler Ali İhsan Yitik, Bülent Ünal. İstanbul: İz yayıncılık, 2004. – S.25.

<https://scientific-jl.com/>

muslim” (Qora musulmonlar) harakati ham shu toifaning bir qismi sifatida baholanadi. Eronda XIX asrda islomning shia yo‘nalishida kelib chiqqan va dastlab “Bobiylilik”, keyinchalik esa “Bahoiylilik” nomini olib, hozirgi kunda o‘zini yangi din sifatida taqdim etayotgan guruh ham G‘arbda yangi diniy harakatlar qatorida tasniflanadi⁴.

XX asrning oxirlariga kelib yangi diniy harakatlar ommalashdi va ilmiy doiralarning diqqat markaziga aylandi. Bu guruhlarining asosiy dinlardan ajralib chiqishi va bu bo‘linishlarning dinamikasi, yangi harakatlar rivojlanishining iqtisodiy asoslari, oqimlarning xalqaro miqyosdagi faoliyati, yoshlarning jamoat a‘zoliciga qiziqishi, ularning guruh ichidagi mavqei, ijtimoiy munosabatlarning jinsga bog‘liq xususiyatlari tadqiqotchilar orasida katta qiziqish uyg‘otdi.

YDH dastlab AQShda paydo bo‘lganida, ular ijtimoiy muammo sifatida qabul qilinmagan. Biroq, AQSh va boshqa G‘arb jamiyatlarida bunday harakatlarning shiddat bilan ko‘piyishi va ular bo‘lgan qiziqishning ortib borishi bu holatni tezda o‘zgartirdi. Chunki a‘zolarning jamoatlariga sodiqligi va ularning hayot tarzidagi o‘zgarishlar bu oqimlarning asl mohiyatini namoyon qildi. Dastlab bu harakatlar faqat aqlini tanimagan yoshlarning oddiy gedonistik istaklarini qondirish uchun murojaat qilgan vaqtinchalik ovunchoq sifatida qaralganligi tufayli jamiyat e‘tiborini tortmagan. Biroq, oqimlarga qo‘shilgan puldor yoshlarning maktablarini tashlab ketishi, ularning diniy guruhlar missionerlariga aylanishi, ko‘chalarda jamoa uchun pul yig‘ishi, masalan, “Xudoning bolalari” (The Children of God) sektasi a‘zosi bo‘lgan ayollarning fohishalik qilib jamoa uchun pul topishi va bu usulni missionerlik sifatida talqin qilinishi jamiyatning diqqatini tortdi. “Xudoning bolalari” harakatining asoschisi Mose David Bergning jamoaviy turmush tarzini qo‘llab-quvvatlashi, ayollardan jinsiy qul sifatida foydalanishi va shunga o‘xshash jamoaviy guruhlarining ko‘payishi jamiyatda norozilikni keltirib chiqardi⁵. Amerika va boshqa G‘arb jamiyatlarida bu

⁴ Qarang: Yasin İpek. Yeni bir dini hareket olan bahailikte tebliğ anlayışı ve Türkiye'de bahailer. Journal Of International Social Research, 11/59, 2018. – pp. 327-1337.

⁵ Adam Possamai & Murray Lee. New Religious Movements and the Fear of Crime. Journal of Contemporary Religion, Vol. 19, No. 3, 2004. – pp. 337-352.

<https://scientific-jl.com/>

guruhlarini cheklash, hatto taqiqlash borasidagi davlat organlariga qilingan murojaatlar dastlab konstitutsiyadagi din erkinligini kafolatlovchi qonunlar tufayli e'tiborga olinmadi va ularga qarshi qat'iy choralar ko'rilmadi. Chunki bu sektarlarga qo'shilgan shaxslarning ko'pchiligi voyaga yetgan bo'lib, bu ularga qarshi davlat tomonidan biror chora ko'rilishini oldini olar edi. Qonunan chora ko'ra olmagan ota-onalar bolalarini bu zararli oqimlarning tarmog'idan qutqarish uchun ularni o'g'irlash kabi muqobil yechimlarni tanlashga majbur bo'ldi⁶. Biroq, vaqt o'tishi bilan, diniy erkinlik qonun bilan kafolatlanmagan va fuqarolarga nisbatan qattiqroq munosabatda bo'lgan mamlakatlarda davlat aralashuvi kuchga kirdi.

Apokaliptik harakatlar, o'z e'tiqodiga ko'ra, "oxirgi jangga" tayyorlanayotgan najot topuvchi guruh sifatida o'zini ko'radi. Ular uchun mavjud ijtimoiy tizimlar "yovuzlik"ning timsoli bo'lib, ularni yo'q qilish ilohiy vazifa sifatida talqin qilinadi.

James Bekford⁷ YDHni mashhur qilgan asosiy sabab sifatida izdoshlarining o'limi va o'z joniga qasd qilish hodisalarining ko'payishi ekanini keltiradi. Chunki turli sektalar a'zosi bo'lgan shaxslarning yakka va jamoaviy tarzda o'z joniga qasd qilish holatlari ko'plab mamlakatlarda kuzatilgan.

Yevropa va Amerikada 1979-yildan boshlab diniy harakatlar ta'sirida ommaviy tarzda o'z joniga qasd qilish holatlari bir necha marta kuzatilgan. Ommaviy o'z joniga qasd qilishlardan eng mashhuri 1979-yilda AQShning Gayana shtatidagi Urwald shahrida sodir bo'ldi. "Xalqlar ehromi" (People's Temple) nomli sektaning 900 a'zosi jamoaviy tarzda o'z joniga qasd qilgan. 1985-yili sentyabr oyida Filippindagi bir tabiat bilan bog'liq diniy harakatning 68 a'zosi bir vaqtning o'zida o'z joniga qasd qiladi. Bu voqeadan ikki yil o'tib, 1987-yil avgust oyida Janubiy Koreyadagi bir fabrika tomida o'z joniga qasd qilgan 33 ishchining jasadi topiladi. 1993-yil aprel oyida esa AQShda David Koresh tomonidan tashkil etilgan "Davidiylar sektasi" Texas shtatidagi bir fermer xo'jaligi

⁶ Qarang: Özkan R. Neo-Politik Kriminoloji: Yeni Dinî Hareketler ve Hukuk. Konya: Eğitim Yayınevi, 2022. – 275 s.

⁷ James Beckford. Accounting for conversion. British Journal of Sociology, 1985. – pp. 29:249-262.

<https://scientific-jl.com/>

uyida FBI bilan 51 kun davom etgan qurolli to'qnashuvga kirishadi va natijada oqim yetakchisi hamda 86 a'zosi birgalikda o'z joniga qasd qiladi. Bu voqea butun dunyoga telekanallar orqali namoyish etiladi. 1994-yil 5-sentyabrda Shvetsariya vujudga kelgan "Quyosh ehromi sektasi" (Ordre Temple Solaire) a'zolaridan 53 kishi Friburg shahrida o'z joniga qasd qiladi. Yana shu harakatning ba'zi a'zolari 1995-yil dekabr va 1997-yil mart oylarida jamoaviy tarzda bir vaqtning o'zida o'z joniga qasd qiladi. 1997-yil mart oyi boshida Amerikada "Heaven's Gate" (Jannat darvozasi) sektasining 39 a'zosi birgalikda o'z joniga qasd qiladi. Bundan tashqari "Brahma Kumaris" sektasining psixologi Heide Fittkau ham 33 tarafdori bilan birgalikda o'z joniga qasd qiladi. Sektalar bilan bog'liq dunyoni larzaga solgan yana bir voqea o'tgan asrning so'nggi o'n yilligida Yaponiyada sodir bo'ldi. 1984-yili Yaponiyada tashkil etilgan "Aum sinrikyo" (Aum haqiqati ta'limoti) sektasi asoschisi Asahara Syoko tomonidan 1995-yili 20-martda Tokio metrosida zaharli gaz yoradmida terakt amalga oshirishni rejalashtirgan, ammo so'nggi daqiqada bu hujumning oldi olingan⁸. Bu voqea ommaviy o'z joniga qasd qilishdan ko'ra, odamlarni ommaviy qirg'in qilishga qaratilgan terror harakati edi. Dastlab terrorchilik akti sifatida taxmin qilingan bu hodisa, diniy asosga ega sekta tomonidan amalga oshirilishi rejalashtirilgan harakat ekani ma'lum bo'ldi. Rejasini amalga oshira olmay qo'lga olingan Asaharaga nima uchun bunday qilmoqchi bo'lgani, qaysi terror guruhi nomidan faoliyat yuritayotgani so'ralganda, u g'alati tarzda, "Xudo roziligi uchun" deb javob beradi. Chunki uning e'tiqodiga ko'ra, dunyo o'zining jismoniy umrini yashab bo'lgan va insoniyatni azobli o'limlar kutayotgan qiyomat yaqinlashayotganiga ishoniladi. Insonlarga bu azoblarni ravo ko'rmagani uchun, ularni zaharli gaz bilan o'ldirish yo'lini tanlaganini aytadi. Bundan tashqari, u materializm odamlarning ruhiy erkinligiga bosim o'tkazayotgani va odamlarning ruhlarini ozod qilish va qutqarish maqsadida ularni portlatish yo'lini tanlaganini aytadi⁹.

Dunyoni dahshatga solgan ommaviy o'z joniga qasd qilish hodisalarining

⁸ James Beckford. Accounting for conversion. British Journal of Sociology, 1985. – pp. 28-29.

⁹ Rafet Özkan. Kiyamet tarikatlari - yeni dini hareketler. Istanbul: IQ Kültür Sanat Yayıncılık, 2023. – S. 37.

<https://scientific-jl.com/>

eng so'nggisi 2000-yilda Ugandada sodir bo'lgan edi. 2000-yilning 17-mart kuni Ugandaning Manangu qishlog'ida 500 dan ortiq odam bir vaqtning o'zida o'zlarini yoqib yuborish orqali ommaviy tarzda o'z joniga qasd qilgan. Bu voqea telekanallar orqali jonli efirga uzatilib va xudkush sektantlar soni 1000 nafar ekani aytilgan. Ushbu jamoaviy o'z joniga qasd qilish hodisasida 78 dan ortiq yosh bola halok bo'lgan. 1979-yili Amerikada sodir bo'lgan ommaviy o'z joniga qasd qilish hodisasining qurboni bo'lgan 900 kishining 256 tasi yosh bolalar bo'lganligi e'tiborga olinsa, o'z joniga qasd qilishga undovchi sektalarning jamiyatlar uchun qanchalik xavfli ekanligi namoyon bo'ladi. Shu va shunga o'xshash dahshatli voqealar butun dunyo diqqatini yangi diniy harakatlarga qaratishiga sabab bo'ldi. Alohida, individual tarzda o'z joniga qasd qilishdan ko'ra ommaviy o'z joniga qasd qilish jamiyat uchun yana xatarli ekani ma'lum bo'ldi. Ayniqsa, butun dunyoni qutqarish maqsadida barcha odamlarni o'ldirishni maqsad qilgan soxta gumanistik, ezoterik guruhlarining mavjudligi butun dunyo uchun jiddiy tahdid sifatida saqlanib qolmoqda.

Besh yulduzli hashamatli mehmonxonalarda ommaviy shahvoniy marosimlar va ziyofatlar orqali o'z safiga yangi a'zolari jalb qilishga intiluvchi "Raelyenlar harakati" kabi ba'zi sektalar esa dastlab lazzat, ishrat va zavq ichida yashashni namoyish qilib, uning ortidan ommaviy tarzda o'z joniga qasd qilishni maqsad qiladi. Cheksiz lazzat, zavq va o'yin-kulgiga berilib ketgan berilib ketib o'zligini yo'qotgan sekta tarafdorlari harakatning ichiga yetarlicha kirganlaridan so'ng, ularning taqdiri ommaviy o'z joniga qasd qilish kabi dramatik o'lim sahnalari bilan yakunlanishi mumkin. Heide Fittkau tomonidan sodir etilgan va 33 kishining o'limi bilan yakunlangan voqea bunga eng yorqin misoldir.

Apokaliptik g'oyalarning ijtimoiy tahdidlaridan yana biri ijtimoiy ajratilish (izolyatsiya) va guruhiy radikallashuv hisoblanadi. Apokaliptik guruhlar ko'pincha o'z a'zolarini tashqi dunyodan ajratib, faqat ichki ierarxiyaga bo'ysunishga undaydi. Bunday izolyatsiya jarayoni oila, do'stlar va jamiyat bilan aloqalarni yo'qotishga olib keladi. Guruh a'zosi butun dunyo qarshi chiqayotganini his qilib,

faqatgina rahbar yoki harakat doirasida xavfsizlikni his etadi. Bu holat Jonestown¹⁰ (People's Temple) fojeasida yaqqol ko'zga tashlangan – rahbar Jim Jones o'z tarafdorlarini Guyana o'rmoniga ko'chirish orqali izolyatsiyalagan va ularni ommaviy o'z joniga qasd qilishga undagan.

Insonlarning ruhiy salomatligi va jamiyatga psixologik bosim o'tkazish xususiyati bilan apokaliptik sektalar jamiyat hayotiga jiddiy havf soladi. Apokaliptik g'oyalar, ayniqsa yoshlar yoki ruhiy jihatdan beqaror shaxslar orasida chuqur psixologik ta'sir o'tkazishi mumkin¹¹. Doimiy “oxirgi kun yaqin” degan qo'rquv hissi, depressiya va passivlikni kuchaytiradi. Shuningdek, bu kayfiyat odamlarni normal ijtimoiy faoliyatdan chetlashtiradi, oilaviy hayotga, o'qish yoki ishlashga bo'lgan motivatsiyani so'ndiradi.

Apokaliptik g'oyalarning ijtimoiy tahdidlaridan yana biri sifatida siyosiy manipulyatsiya va ijtimoiy beqarorlikni ham misol keltirishimiz mumkin. Apokaliptik ideologiyalar ba'zida siyosiy manipulyatsiyaning vositasi sifatida ishlatiladi. Diniy populizm vositasida ayrim siyosiy kuchlar odamlarni “oxirgi najot yo'li”ga chaqiradi va muxolif fikrli kishilarni “yovuzlar” deb taqdim etadi. Bu esa siyosiy polarizatsiya va beqarorlikka olib keladi¹².

Masalan, AQShdagi ba'zi evangelistik guruhlar Isroil bilan siyosiy ittifoqni apokaliptik bashoratlar (Armageddon) bilan oqlaydi. Apokaliptik g'oyalar radikal ekstremizmga olib boruvchi manba sifatida ham katta ijtimoiy havf tug'dirishi mumkin. “Biz” va “ular” dualizmi orqali apokaliptik guruhlar o'zlarini najot topuvchilar, boshqalarni esa “halokatga loyiq” guruh sifatida talqin etadi. Bu yondashuv ekstremistik harakatlarning asosiy mafkuraviy poydevoriga aylanadi. Global jihodiy harakatlarda ham bu yondashuv yaqqol namoyon bo'ladi – ular o'z urushlarini esxatologik jang sifatida talqin qiladi¹³.

Yangi diniy harakatlarning aksariyatini har bir sahnada turli o'yinlar

¹⁰ Hall J.R. *Gone from the Promised Land: Jonestown in American Cultural History*. Transaction Publishers, 1987. – P. 162.

¹¹ Dawson L.L. *Comprehending Cults*. Oxford University Press, 2006. – P. 65.

¹² Barkun M.A. *Culture of Conspiracy*. University of California Press, 2003. – P. 81.

¹³ Juergensmeyer M. *Religion as Social Vision: The Movement against Untouchability in 20th-Century Punjab*. California: University of California Press, 2000. – P. 205.

<https://scientific-jl.com/>

namoyish etiladigan teatr spektakliga o'xshatish mumkin. Birinchi sahna jozibali obrazlar namoyish etiladigan reklama sahnasiga o'xshaydi. Ushbu sahnada tomoshabin ehtiroslarini jumbushga keltiruvchi, qarshilik qilib bo'lmaz jozibador obrazlar hukmron bo'lib, odamlarning shahvoniy xohish va istaklari-yu hissiyotlarini qo'zg'atuvchi o'yinlar orqali yangi tarafdorlar guruhga yaqinlashtirilib, ularning qalblari zabt etiladi. Bunga erishishda insonlarning shahvoniy istaklaridan asosiy rag'batlantiruvchi kuch sifatida foydalaniladi va tarafdorlar orasida individual va jamoaviy hamda qarama-qarshi jins vakillari o'rtasida jinsiy aloqa qilish kabi amaliyotlar qo'llaniladi. Shundan so'ng, giyohvandlik va shunga o'xshash zavq beruvchi rekreatsion moddalarni kiritish va ommaviy iste'mol qilish bosqichi boshlanadi. Guruhga yaxshi moslasha boshlagan tarafdorlar orasida ruhiy tozalash, individual terapiya, jamoaviy terapiya, kabi turli amaliyotlar bajariladi. Bu bosqich spektaklning ikkinchi pardasidir. So'nggi pardada esa har qanday moddiy lazzat va zavqni tatib ko'rgani tufayli hech narsadan qoniqmaydigan va cheksiz gedonizm (hayvoniy lazzatga berilish) bilan ham qanoatlanmaydigan shaxsiyatlardan iborat to'da vujudga keladi. Aksariyat hollarda aynan shu bosqichda bunday odamlar lazzat va zavqlanishning eng qiyin usuli hisoblangan – o'z joniga qasd qilish amaliyotiga chaqirilishi mumkin. O'z joniga qasd qilishga undalgan odamlar qayta tirilish, Xudo sifatida yangi hayot boshlashi kabi yolg'on vadalarga ishontirilib, o'limga tayyorlanadi, ularning miyalari yuvilib, giyohvandlik moddalari yordamida sarhush holatga olib kelinadi. Ushbu bosqichda qaytib bo'lmaz yo'lga kiriladi va teatrning so'nggi sahnasi o'lim bilan yakunlanadi.

Teatr sahnasi shaklida talqin qilingan ushbu uch bosqichli jarayon asosan e'tiqodiy qarashlarida oxirzamon yaqinligi, va o'z joniga qasd qilish kabi g'oyalarni ilgari suruvchi oqimlar faoliyatida ko'p kuzatiladi. Biroq o'z joniga qasd qilishga undamaydigan boshqa sektalarda esa teatr sahnasining dastlabki ikki pardasi qo'llanadi. Vegetarianlik (o'simliklarga asoslangan ovqatlanish) xususiyatiga ega oqimlar esa giyohvandlik moddalari va zavq beruvchi usullardan deyarli foydalanmaydi, ammo ularning soni ko'p emas.

Apokaliptik g'oyalar, ya'ni dunyoning yakuni, oxir-zamon yoki "qiyomat kuni"ga oid tasavvurlar, turli dinlar va yangi dini harakatlar (YDH) doirasida muhim o'rin egallaydi. Ammo zamonaviy kontekstdagi apokaliptik tafakkur, ayniqsa millennialistik va esxatologik e'tiqod shakllarida, nafaqat diniy-falsafiy, balki ijtimoiy xavfsizlik uchun ham jiddiy tahdid soluvchi hodisa sifatida qaralmoqda. Bu bo'limda ushbu g'oyalarning ijtimoiy hayotdagi tahdid shakllari sotsiologik, psixologik va siyosiy nuqtai nazardan tahlil qilindi.

Foydalanilgan manbalar

1. Adam Possamai & Murray Lee. New Religious Movements and the Fear of Crime. *Journal of Contemporary Religion*, Vol. 19, No. 3, 2004. – pp. 337-352.
2. Barkun M.A *Culture of Conspiracy*. University of California Press, 2003. – P. 81.
3. Bryan Wilson. *Dini Mezhepler. Cevirenler Ali İhsan Yitik, Bülent Ünal*. İstanbul: İz yayıncılık, 2004. – S.25.
4. Dawson L.L. *Comprehending Cults*. Oxford University Press, 2006. – P. 65.
5. Emine Battal. *Kıyametin Gölgesinde: Yeni Dini Hareketler ve Şiddet*. İstanbul: Okur Akademi, 2019. – S. 176.
6. Hall J.R. *Gone from the Promised Land: Jonestown in American Cultural History*. Transaction Publishers, 1987. – P. 162.
7. James Beckford. Accounting for conversion. *British Journal of Sociology*, 1985. – pp. 29:249-262.
8. Juergensmeyer M. *Religion as Social Vision: The Movement against Untouchability in 20th-Century Punjab*. California: University of California Press, 2000. – P. 205.
9. Rafet Özkan. *Kiyamet tarikatları - yeni dini hareketler*. İstanbul: IQ Kültür Sanat Yayıncılık, 2023. – S. 37.
10. Rafet Özkan. *Neo-Politik Kriminoloji: Yeni Dinî Hareketler ve Hukuk*. Konya: Eğitim Yayınevi, 2022. – 275 s.
11. Yasin İpek. Yeni bir dini hareket olan bahailikte tebliğ anlayışı ve Türkiye'de bahailer. *Journal Of International Social Research*, 11/59, 2018. – pp. 327-1337.